

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDAGI IQTISODIY ISLOHATLAR, BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH BARQAROR TARAQQIYOT SARI YO'L

Odilov Alisher Farhod o'g'li

AIFU Tarix(mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

magistratura 2-kurs

Annotatsiya: Mazkur tezis O'zbekiston mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning mamlakat taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, O'zbekistonning global iqtisodiy maydondagi o'rni va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti, investitsiya, bank tizimi, modernizatsiya, raqamli iqtisodiyot

Barchamizga ma'lumki, 1990-yillarning boshlarida mustaqillikka erishgan ayrim davlatlarda eski tuzumni rad etib, uni buzib, demokratik jamiyat va bozor munosabatlari dasturini e'lon qilib, birdaniga demokratik davlat quramiz, birpasda rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishamiz, deb jar solgan edilar. O'sha paytdayoq O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti bunday shovshuvlarga xomxayol, quruq gap deb baho bergan edi, amalda ham shunday bo'lib chiqdi. Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq eski tuzum o'z o'rnini osonlikcha bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va yengil o'z iskanjasidan chiqarmasligini ta'kidlagan edi. Eng muhimi, yangi ijtimoiy munosabatlarning zarur asosini, zaminini, poydevorini qurib olish uchun ma'lum vaqt, jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarni tayyorlash-tarbiyalash kerak edi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichiga qadam qo'ydi va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Xususiylashtirish va davlat mulkini xususiylashtirish O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy kapitalni jalb qilishga alohida e'tibor qaratildi. Sanoatni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish hajmini oshirish iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi va bank tizimidagi islohotlar tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga xizmat qildi. Soliq islohotlari natijasida biznes yuritish sharoitlari yaxshilanib, tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida paxta monopoliyasidan voz kechib, meva-sabzavot eksportini kengaytirish strategiyasini qabul qildi. Raqamli iqtisodiyot va

innovatsion texnologiyalar iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismiga aylandi. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha olib borilgan islohotlar O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamladi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan uzoq muddatli iqtisodiy strategiyalar barqaror rivojlanish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan.

1991-yilning oxiri va 1992-yilning boshida respublikamiz iqtisodiyoti juda og'ir ahvolga bo'lib, naq ocharchilik ostonasida turardik. O'zbekistonni bunday iqtisodiy tanglikdan taraqqiyot yo'liga chiqarish uchun mamlakat iqtisodiy tizimini yangilash, eski mustabid-rejali iqtisoddan yangi bozor iqtisodiga o'tish taqozo etilardi. O'zbekistonning eng yangi tarixida mamlakatning aniq va puxta rivojlanish strategiyasi mustaqillikka erishilganidan so'ng ishlab chiqildi va izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. „Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishda respublikaning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga oladigan, O'zbekistonning o'tmishi, xozirgi kuni va kelgusi taraqqiyotiga to'la to'kis mos keladigan mutlaqo yangi andoza, o'ziga xos yo'l zarur“-dedilar va yangi iqtisodiy tizimga o'tish modelining asosiy tamoyillari, uni amalga oshirish yo'llari, bosqichlarini Islom Karimov ishlab chiqdilar va u ilmiy asoslangan mashhur besh tamoyilda o'z aksini topdi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat bo'ldi:

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish.

Ikkinchidan, davlatning o'zi eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida bosh islohotchi bo'lishi zarur.

Uchinchidan, Qonunning ustuvorligi, yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmogi zarur.

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tishda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, davlatning aholini ijtimoiy nochor guruhlarini qollab-quvvatlash borasida mas'ul bo'lishidir.

Beshinchidan, islohotlarni, bozor munosabatlarini shakllantirishni puxta O'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim.

Taraqqiyotning milliy modeli tanlanishida mamlakatimizning iqtisodiy ijtimoiy sharoiti va salohiyatidan, xalqimizning tarixi, milliy urf-odatlarini, diniy e'tiqodidan kelib chiqildi. Bunda ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi mukammal o'rganildi va inobatga olindi. Istiqloq yillarida mulkchilik tarkibida tub o'zgarishlar yuz berdi, amalda ko'pukladli iqtisodiyot shakllandi. Uning tarkibida xususiy mulk salmoqli o'rin egalladi. Yalpi ichki maxsulot tarkibida nodavlat sektorining ulushi 80 foizdan oshishiga erishildi. Sobiq ittifoqdosh respublikalar orasida faqat O'zbekistonda 1996-yildan boshlab izchil iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlandi. Agar 1996-2003-yillarda o'rtacha o'sish sur'ati 4,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yildan boshlab bu jarayon yangi bosqichga ko'tarilib, yuqori darajada yiliga o'rtacha 7,5-9 foiz o'sishni tashkil etdi. 1992-1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida “Kichik

xususiylashtirish” amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan mayishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiylashtirish berildi. Davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichiga o'tishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiylashtirishning manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asos qilib olindi. Bu davrda ochiq aksiyadorlik jamiyatlarini yaratish, korxonalar aksiyalarini chiqarish, auksion(kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni keng miqyosda olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidayoq “Respublika ko'chmas mulk birjasi”, “Tovar xom ashyo birjasi”, “Toshkent fond birjasi” tashkil etildi. Bu tarmoq yanada rivojlantirildi. 1991-2000-yillarda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xom ashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keladi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi va haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi. 1994-yil 16-iyundagi “O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasing muomalaga kiritish to'g'risida”gi Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1994-yil 1-iyuldan boshlab milliy valyuta – so'm muomalaga kiritildi. 1 so'm kursi 1000 so'm-kuponga tenglashtirilgan holda joriy qilindi.

Istiqlol yillarida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rta gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'irot soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, Asakadagi yengil avtomobillar, Samarqanddagi yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqaradigan zavodlar, yuzlab zamonaviy yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari ishga tushirildi 1991-1997-yillarda rivojlanishning „O'zbek modeli” asosida olib borilayotgan tub islohotlarning huquqiy poydevorini yaratishga katta e'tibor qaratildi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samaralari tashkil qilish va rivojlantirish borasida yangi qonunlar va normativ hujjatlar qabul qilindi. 1996-yil 26-noyabrda Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi va bozor iqtisodiyotiga o'tish

jarayonini izchil amalga oshirdi. Xususiylashtirish, investitsiya jalb qilish, soliq va bank tizimi islohotlari kabi chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qildi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar sanoatni modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratildi. Bugungi kunga kelib, O'zbekiston iqtisodiy islohotlarning natijalarini his etmoqda: milliy iqtisodiyotning barqarorligi ortib, xalqaro maydonda raqobatbardoshligi oshmoqda. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakat kelajagi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu islohotlarning davomiyligi va samaradorligi kelgusi yillarda O'zbekistonning yanada taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ISLOM KARIMOV „O'ZBEKISTON BUYUK KELAJAK SARI“-TOSHKENT:„O'ZBEKISTON'',1998
2. Berdiyev Abduvali „O'zbekistonning eng yangi tarixi''-Toshkent:„Bookmany print'',2024
3. Yu. A. Ergashev „O'zbekistonning eng yangi tarixi'-QARSHI:„INTELLIKT'',2021
4. N Abduazizova„O'zbekiston tarixi(Mustaqillik istiqilol davri)3-kitob''-T:„SHARQ'',2011
5. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov A.A.Odilov „O'zbekistonning eng yangi tarixi (darslik)''-TOSHKENT ,2023
6. Matyoqubov Xalil Hayitbayevich„O'zbekistonning eng yangi tarixi(O'quv qo'llanma''-TOSHKENT:2021.
7. SUYUNOV ABBOS ILYOS O'G'LI„Yangi O'zbekiston: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda muvaffaqiyatli xalqaro tajriba» 16 dekabr, 2022 yil.
8. Nabiyeva Muyassar Abdurasul qizi,O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SUVERENETETI VA UNING ASOSIY TAMOIYILLARI//Часть-3_Декабрь – 2024